



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLİSH: YANGI
PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR
FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

SHUKUROVA NILUFAR XALIYAROVNA

*Samarqand VXTXQTMO hududiy markazi
Pedagogika, psixologiya va ta'lif texnologiyalari
Kafedrasi o'qituvchisi*

ZAMONAVIY YOSHLARIMIZNING KELAJAGIGA OMMAVIY
MADANIYATNING TA'SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda butun dunyoga xavf solayotgan va yoshlarning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan "ommaviy madaniyat", unga qarshi kurashishda yuksak ma'naviy va axloqiy bilimlarni shakllantirish masalalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: "ommaviy madaniyat", milliy ong, yoshlar, axloq, madaniyat, ma'naviyat.

Bizga ma'lumki, bugungi dunyoning ma'naviy qiyofasiga nazar tashlasak ahloqsizlikni, madaniyatsizlikni, ma'naviyatsizlikni erkinlik deb bilish, milliy urfatlar va qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar ma'naviy hayotga, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda. Natijada zamonaviy yoshlarimizning ma'naviy – axloqiy qiyofasi kun sayin o'zgarib bormoqda.

Yoshlik - bu o'rganish, yaratish, o'zingizni izlash, ehtimol ba'zida xato qilish vaqtin, lekin asosiysi tajriba orttirish va xatolarni takrorlamaslikdir. Aynan shu davrda shaxsning shakllanishi sodir bo'ladi, axloq asoslari ishlab chiqiladi, ijtimoiy munosabatlar shakllanadi, xarakter belgilanadi, o'ziga va odamlarga munosabat shakllanadi. Aynan shu yoshda inson har qachongidan ham ko'proq bilim olishga, o'zini o'zi bilishga va takomillashtirishga tayyor. Agar bu yoshda odam o'z ta'limida hech narsa olmagan bo'lsa, unda uni o'rgatish va qayta tiklash deyarli mumkin emas.



Bugungi kunda O'zbekistonda yashovchi aholi soni 35,4 million kishiga yetgan bo'lib, yoshlarning soni 57,4% ni tashkil etadi. O'zbekistonning doimiy aholisi sonida mehnatga layoqatli yoshga to'limgan bolalar 31,5%, mehnatga layoqatli yoshdagilar 57,4% va mehnatga layoqatli yoshdan kattalar 11,1%ni tashkil etdi. Yaqin vaqtgacha yoshlar 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan odamlar deb tasniflangan bo'lsa, yaqinda yuqori chegara 35 yoshga o'tdi. Katta hajmdagi ma'lumotlarni olish va o'zlashtirish zarurati tufayli ta'lif olish va kasbni egallash vaqtini ko'paydi. Bir tomondan, fiziologik akseleratsiya, go'yo bolalarni tezda kattalarga aylantirsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy yetuklik to'liq bo'limgan yoshlarning mavjudligi buni amalga oshirishga imkon bermaydi. Psixofiziologik jihatdan yoshlik kattalar dunyosiga, sotsiologik jihatdan esa bolalar dunyosiga tegishli. Natijada, zamonaviy yoshlar psixologiyasi bilan ajralib turadi.

Shunday qilib, kattalar: "Voy, qanday madaniyatsiz va axloqsiz yoshlar", deyishadi, lekin katta avlod buning oldini olish uchun nimalar qildi? Ular o'rgatmadilar, shaxsiy misol bilan ko'rsatmadilar, tushuntirmadilar!

Zamonaviy o'zbek yoshlarning muammolari, aslida, nafaqat bu yoshlarning, balki butun jamiyatning muammolari desak aslo adashmagan bo'lamiz. Agar biz bu muammolarni hozir hal qilmasak, yoshlarimiz yanada og'irlashadi va nafaqat bugungi kunga, balki ertagamizga ham ta'sir qiladi. O'qimagan va madaniyatsiz jamiyat undan ham bilimsiz va madaniyatsiz kelajak avlodni yetishtirishi mumkin.

Zamonaviy yoshlar ijtimoiy-madaniy merosni tubdan o'zgartirish, qayta qurish davrida tug'ilib o'sdi. Ko'pgina asosiy qadriyatlar unutilgan yoki almashtirilgan, ba'zi yoshlarda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, halollik, ezgulikka e'tiqod, romantizm, bilimga intilish, vijdonlilik, haqiqatga intilish va haqiqatni izlash kabi muhim xususiyatlar butunlay yo'q bo'lib ketmoqda.

Demak, hozirgi vaqtida ommaviy madaniyat yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, milliy taraqqiyotga zarar yetkazishi mumkin. Ommaviy madaniyatning bu xususiyati esa insonning "ildizlarini kesadi". Keling, uning haqiqiy xavfli oqibatlarini nomlaylik: shaxs madaniy ongining noto'g'ri shakllanishi; milliy madaniyatni yo'q qilinishi; umuminsoniy madaniy qadriyatlarga shubha; milliy ma'naviyatdan uzoqlashish; foyda(moddiy ehtiyoj) birinchi o'rinda turishi; ma'naviy intelekt fonida inson ma'naviyati; keksa va yangi avlodga e'tiborsizlik; shaxsiyatni shakllantirishda, yengil hayotni asos qilib olish.

Xulosa qilib aytganda inson "ildizi kesilsa", uni erkin manipulyatsiya qilish mumkin, u o'zini o'zi anglamay "ommaviy madaniyat" oqimiga tushib qoladi. Shunga asoslanib, rus olimi V. G. Fedotovaning so'zlarini bilan ommaviy madaniyat "ildizsiz shaxslar"ni tashkil etishini ifodalash mumkin. U "Ommaviy axborot vositalari yordamida "ildizsiz" shaxslar massasi paydo bo'ladi va buning natijasida jamiyat anomiya holatiga (urf-odat va intizom yo'qoladi)" degan xulosaga keladi.

Agar jamiyatda intizom yo'qolsa, qadriyatlar va axloq yo'qoladi. Binobarin, agar axloq yo'qolsa, jamiyatda ma'naviy qashshoqlar massasi paydo bo'ladi. Bu esa "ommaviy madaniyat"ning asosiy maqsadidir. Yuqoridagi fikr-mulohazalarni hisobga olsak, yillar davomida ommaviy madaniyatning asosini ijobiyidan ko'ra ko'proq salbiy xususiyatlar tashkil eta boshlaganini anglab yetishimiz mumkin.



Agar ilgari xalq, milliy mentalitetga moslashish, ijtimoiy yaqinlashuv kuzatilgan bo'lsa, keyingi jarayonlarda buning aksi kuzatilmoqda. Shunday ekan, hozirgi paytda yoshlarimizning ma'naviy immunitetini yuksaltirishga, ma'naviy tahdidiga qarshi kurashishga qodir milliy ma'naviyat markazlarini yaratish zarurati kuchli namayon bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.118-b.
2. G'aybullayev O.M. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi. –T: "Fan va texnologiya", 2019. 451-b.
3. Orlova E.A. Социокультурное пространство массовой культуры. Обсерватория культуры. 2004. – №3. – С. 4-10.
4. Fedotova V.G. Факторы ценностных изменений на Западе и в России. Вопросы философии. 2005.-№11. - С.3.